

TA'LIMDA YANGI BAHOLASH TIZIMI

Mansurova Zebo
Umarova Madina

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda ta'limda bo'layotgan o'zgarishlar, ta'lim sihasidagi yangi baholash tizimi hamda bu tizimning natijaviyligi haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: An'anaviy, mezon, ixtisoslashtirilgan, ta'lim, umumiy.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится об изменениях в образовании сегодня, новой системе оценивания в образовании и эффективности этой системы.

Ключевые слова: Традиционное, стандартное, специализированное, общее образование.

ABSTRACT

This article talks about the changes in education today, the new evaluation system in education and the effectiveness of this system.

Keywords: Traditional, standard, specialized, general education

Davlatimiz rahbari 2023-2024-o'quv yilidan Buxoro viloyatida ham 28 ta umumta'lim maktabi tanlandi. Ularda yangi baholash tizimi tajriba-sinovdan o'tkazilmoqda. Bu jarayonga maktablarning 5-11-sinf o'quvchilari jalb etilgan. Ushbu maktablarga viloyatda mavjud Prezident va ixtisoslashgan maktablar "tayanch muktab" sifatida biriktirilgan.

Mazkur baholash tizimi amaldagisidan farq qiladi. Bunda inson omili minimallashtirilgan. U o'quvchining bilimini ob'ektiv baholash hamda to'g'ri yo'naltirishga zamin yaratadi. – An'anaviy baholashda o'quvchilar bilimi 5 balli tizimda baholanib, kunlik bahosi ko'proq choraklik bahosini chiqarishda asosiy rol egallaydi va bu unchalik ham xolis baholashga kirmaydi, – dedi maktabning matematika o'qituvchisi Amrillo Saidov. – Chunki o'qituvchi bolalarni 5 balli tizimda nisbiy baholab keladi. Shu asosida ularning bilimi, olgan bilimini amaliyatga qo'llashi, mulohaza, mushohada qilish ko'nikmalari ham baholanadi. PISA - o'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, undagi test jahon davlatlaridagi muktab o'quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo'llay olish

mahoratini baholaydi. Dasturning asosiy maqsadi 15 yoshli o‘quvchilar ta’lim dargohida olayotan bilim va tajribalarini ijtimoiy munosabatlarda va inson faoliyatida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda qanchalik foydalana olish qobiliyatini baholashdir. Ushbu sinov har uch yilda bir marotaba o‘tkaziladi. Testda faqat 15 yoshdagi o‘smirlar ishtirok etadi. Maktabdagagi ta’lim sifatini monitoring qilishga qaratilgan PISA dasturi asosiy uch yo‘nalishda: o‘qish, matematika va ijtimoiy fanlar savodxonligi bo‘yicha olib boriladi.

Birgina 2015 yilning o‘zida 70 dan ortiq davlatlar PISA xalqaro dasturi sinovida ishtirok etgan. Umuman olganda, PISA dasturi davlatlarning ta’lim sohasidagi siyosatiga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazadi. Har bir davlat o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida o‘zining ta’lim sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab, boshqa davlatlarga nisbatan mavqeini ko‘radi hamda ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini takomillashtirishda o‘z yo‘nalishlarini va strategiyasini belgilab oladi PIRLS - tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlardagi boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarining har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta’limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir. TMSS - ham jahon mamlakatlari ta’lim tizimida keng tadbiq etilmoqda. TMSS dasturi Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievements) tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, ushbu tadqiqot 4 va 8 sinf o‘quvchilari orasida matematika va ijtimoiy fanlar bo‘yicha ta’limning sifati, darjasи, fanga bo‘lgan munosabati, qiziqishini aniqlaydi. Har 4 yilda bir marotaba olib boriladi. Ushbu tadqiqot PIRLS tadqiqotiga o‘xshab, o‘quvchilar, maktab ma’muriyati va o‘qituvchilarini orasida qo‘srimcha so‘rovnomalari o‘tkazadi va fan sohasida to‘sinqinlik qilayotgan asosiy omillarni aniqlaydi. Bu esa o‘sha mamlakatda ishlab chiqilgan ta’lim standartlarini va ta’lim samaradorligini boshqa davlatlar bilan solishtirib ko‘rish imkonini beradi. Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Kasb-hunar ta’limi markazi qarori bilan Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflari o‘quvchilariga kasbiy ta’lim berishga ixtisoslashgan o‘quv-ishlab chiqarish majmularida joriy, oraliq, bosqichli va yakuniy nazoratlarning baholash mezonlari va tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlandi.

O‘quvchilar bilimi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

-o‘quvchi mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo’llay oladi, kasbning (mavzuning)

mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda kasb (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

-o'quvchi mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, kasbning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda kasb (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

-o'quvchi olgan bilimini amalda qo'llay oladi, kasbning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda kasb (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

- o'quvchi kasb dasturini o'zlashtirmagan, kasbning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda kasb (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho.

Nazorat turlarini o'tkazish bo'yicha tuzilgan topshiriqlarning mazmuni o'quvchining o'zlashtirishini xolis (obektiv) va aniq baholash imkoniyatini berishi lozim. Joriy nazorat o'quvchilarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini namoyish etish, loyihalash, guruhlarda ishlash, savol-javob, muhokama, yozma ish ko'rinishlarida amalga oshiriladi.

Joriy nazoratda quyidagilar baholanadi: o'quvchining ishlab chiqarish ta'limi ustasi yordamida yoki mustaqil ravishda bajargan ishi; kasbga oid ko'nikmalarni namoyish etishi; kasb-hunar talablarini mustaqil bajara olishi; loyihalashda kasb-hunar talabida belgilangan qoidalarni to'g'ri va aniq bajarishi; guruhda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi; kasb-hunar talabini bajarishda o'quv-ishlab chiqarish ta'limi ustasi tomonidan berilgan savollarga javob berishi; kasb-hunar talabini bajarishga oid amaliy ko'nikmalarni og'zaki va yozma bayon eta olishi.

Oraliq nazorat chorak va yarim yillik yakuni bo'yicha o'quvchilarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini baholash uchun o'quv dasturining ma'lum bir mantiqiy yakunlangan qismi tugaganidan so'ng egallagan kasb-hunar bo'yicha amaliy ko'nikmalarni namoyish qilish yoki yozma ish ko'rinishida amalga oshiriladi Oraliq nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha o'quvchining bilimini baholash tegishli fan bo'yicha o'qituvchi yoki ishlab chiqarish ta'limi ustasi tomonidan amalga oshiriladi. Bosqichli nazorat materiallari mazmuni, o'tkazish muddatlari o'quvchilarga tegishli fan bo'yicha o'qituvchi yoki ishlab chiqarish ta'limi ustasi tomonidan o'quv yili boshidan ma'lum qilinadi Bosqichli nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha o'quvchining bilimini baholash tegishli fan bo'yicha o'qituvchi yoki ishlab chiqarish ta'limi ustasi tomonidan amalga oshiriladi.

Yakuniy nazorat o'quvchi tanlagan mutaxassislik bo'yicha kasbiy ta'lim berish jarayoni tugaganidan so'ng egallagan kasb-hunar bo'yicha kompetentligini amaliy namoyish etish orqali yakuniy davlat attestatsiyasi shaklida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha o'quvchining bilimini

baholashda tegishli fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini olib borgan o‘qituvchi yoki ishlab chiqarish ta’limi ustasining ishtirok etishi taqiqlanadi. Yakuniy nazorat turiga uzrli sabablarsiz kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek mazkur nazorat turi bo‘yicha «2» (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazoratdan o‘tmagan hisoblanadi.

O‘quvchilar bilimini nazorat qilish tegishli fan bo‘yicha o‘qituvchi yoki o‘quvishlab chiqarish ta’limi ustasi tomonidan O‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirishini hisobga olish jurnalida qayd etib boriladi. O‘qituvchi yoki ishlab chiqarish ta’limi ustasi qo‘srimcha ravishda o‘quvchilar bilimini baholashni elektron tizimda ham yuritishi mumkin.

Mualliflik dasturiy ta’milot va ulardan elektron ta’lim resurslarini yaratishda foydalanish uchun iSpring Suite paketi dasturlaridan foydalanish yoki Aticulate Storyline dasturlaridan foydalanish mumkin. Bularga iSpring Kinetics, iSpring Quiz Maker, iSpring Pro dasturlarida ishlab, o‘quv resurslari yaratish maqsadga muvofiqdir. iSpring Sute paketi dasturlari bo‘lmish iSpring Kinetics, iSpring PRO, iSpring Quiz Maker, iSpring Sute dasturlari kiradi. Video-darslarni yaratish uchun kerakli kompyuter dasturlarini o‘rganish, shuning uchun ham dolzarb masalalardan hisoblanadi, chunki bugungi kunda multimediali o‘qitish ham rivojlanishi zarur. Internetga rus tilida biror mavzuni qidiruvga bersangiz, yonida video-darslari ham chiqadi, lekin o‘zbek tilida biror mavzuni qidirsangiz, mavzular, ular qatorida shu mavzuni yoki dasturni zo‘r o‘rgatuvchi videolarni topib bo‘lmaydi, shu muammoni bartaraf qilish uchun biz video-materiallarni tayyorlash uchun nima qilish kerak, qanday dasturlarni o‘rganish lozim va qanday o‘rganmoq kerak degan savollarga javob berishni o‘zimizga maqsad qilib quydik. Yuqorida fikrlarga ko‘ra, biz aniqlagan muammo quyidagicha ifodalanadi. Internet manbalarni tahlil qilib, rus tilida qidiruvga biror mavzuni bersangiz, uning oldida bu mavzuga oid qator materiallar va ularga oid video-darslarni ko‘rish mumkin. Lekin o‘zbekcha materiallarni qidirsangiz yo‘q.

Aniq fanlarga, horijiy tilni o‘rganishga oid milliy saytlarni, ta’lim resurslarini, video-darslarni va videoli ta’lim resurslarini yaratish uslubiyotini ishlab chiqish zarur. Boshqa ta’lim resurlarini (misol uchun, virtual laboratoriyalarni) yaratuvchi dasturlarda ishlashni o‘rganish. Dasturlarning asosiy menyusi, ishslash jarayoni bilan tanishish va ta’lim resurslarini yaratishni o‘rganish va ta’lim resursini yaratish ma’ruza, amaliy topshiriqlar ishlanmasi, mustaqil ishlar, pedagogik texnologiyalar va mavzu bo‘yicha zamонави pedagogik texnologiyalardan foydalanishga oid vositada amalga oshirilgan va o‘quv faoliyatida tadbiq etiladigan resurs.

Ta’lim resurslari qaysi dasturda yaratilsa, o‘sha dasturning kengaytmasiga ega bo‘ladi, misol uchun Flashda yaratilsa fla, Power Pointda yaratilsa, ppt yoki pptx. Audio, video-darslarni ovoz yoki video hamda ovozni yozuvchi dasturlarda amalga

oshiriladi. Bunday dasturlarga Bandicam, Snagit, Comtasiya studio va ovoz yozuvchi audio-darslarni yaratuvchi Sounde Forgedasturlari kiradi.

iSpring Sute paketidagi dasturlardan foydalanaib, iSpring Kinetics dasturida interaktiv kitoblarni, iSpring Quiz Maker dasturida testni, iSpring Pro dasturida taqdimotni, iSpring Suteda esa bizga yuqoridagi dasturlarning kombinatsiyasini ishlatib, ta’lim resursi yaratishimiz uchun yordam qiladi, dasturlarni kombinatsion uslubda qo’llashimiz uchun imkon yaratiladi, yaratilgan resurslarni MTTga quyishni yoki Youtubedan animatsiya, video va audiolarni yuklab olib, taqdimotga, interfaol resurslarga quyishni amalga oshiradi.

Videolarni yaratuvchi dasturlar haqida:

iSpring Sute paketi dasturlari.

Zamonaviy kompyuter dasturlar yordamida ta’lim resurslari: videoli taqdimotlar, interaktiv kitoblar, kataloglar, bilimlarni nazorat qiluvchi testlar yaratish uchun quyidagi dasturlardan foydalanamiz:

iSpring Sute-dasturlarni kombinatsion holda qo’llashga, Youtube, masofaviy dasturlarga turli resurslarni quyishga qo’llaniladi, iSpring Kinetics-interaktiv kitoblarni, kataloglarni yaratishga mo’ljallangan dastur, iSpring Quiz Maker-test yaratuvchi dastur.

iSpring Kinetics dasturi. Dasturda interaktiv kitob yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abdullayeva N.A “bo’lajak o‘qituvchilarning komponentligini rivojlantirish omili sifatida 601- 612 betlar
2. O’rinova N.A , yo’ldosheva D.A.Q “Oliy o‘quv yurti talabalarida kreativlik komponentlarini rivojlantirishda faol ta’lim texnologiyalaridan foydalanish usullari
3. Abdullayeva B Bo’lajak o‘qituvchining boshlang‘ich sinf axborot komponentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tayyorgarligining mazmuni : Jizzax 2019 6- bet
4. Boltayeva B , PIRLSxalqaro tadqiqotiga o‘quvchilarning tayyorlashini yaxshilash “xalq talimi jurnali 2021 15-17 betlar
5. Boltayeva b, Eshmirzayev Yu “boshlang‘ich sinflarda tayanch komponentlarni rivojlantirish . Uslubiy qo’llanma Toshkent ‘Navro‘z” 2021 56- bet